

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830789>

Tursunbayeva Yulduz Radj qizi

Pedagogika fakulteti

“Maktab menejmenti” kafedrasi o'qituvchisi.

Kurbanva Shodiya Oybek qizi

“Maktab menejmenti” yo'nalishi II kurs talabasi.

Bakitova Zeynep Joldasovna

“Maktab menejmenti” yo'nalishi II kurs talabasi.

Annotatsiya: *Maktab menejmenti – ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqarish, ta'lim menejerligi va pedagogik faoliyat, ta'lim sifatini nazorat qilish, xalqaro baholash dasturlari, ta'limda innovatsiyalarni boshqarish, taym menejmenti kabi kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.*

Kaliti so'zlar: *Maktab menejmenti, boshqaruv, taym menejment, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika, mehnat iqtisodiyoti.*

Аннотация: *Школьный менеджмент – область образования, включающая в себя управление общеобразовательными школами, образовательный менеджмент и педагогическую деятельность, контроль качества образования, международные оценочные программы, управление инновациями в образовании. Тайм-менеджмент.*

Ключевые слова: *Школьный менеджмент, менеджмент, тайм-менеджмент, макроэкономика, микроэкономика, статистика, экономика труда.*

Abstract: *School management is a field of education, which includes management of general secondary schools, educational management and pedagogical activities, quality control of education, international assessment programs, management of innovations in education. , covers a range of professional areas related to complex issues such as time management.*

Key words: *School management, management, time management, macroeconomics, microeconomics, statistics, labor economics.*

Menejment (inglizcha: management) — boshqarish, tashkil etish) — maxsus boshqarish faoliyati; boshqarish to'g'risidagi fan. Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv ob'yekti orasidagi o'zaro munosabat bo'lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rganishdan iborat. Boshqaruv — tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Menejment ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-

huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqadordir. Menejment dastavval iqtisodiy nazariya fani bilan yaqindan bog‘liq. U iqtisodiy qonunlarni bilib olishga va ularga mos ravishda boshqarish jarayonida iqtisodiy usullarni qo‘llashga, har bir xodimga va jamoaga ta’sir ko‘rsatishga asoslanadi. Bir qancha iqtisodiy fanlar: makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika, mehnat iqtisodiyoti kabilar ham Menejment fani bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekistonda Menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy tamoyillari XIV-XV asrlarda Amir Temur davrida shakllana boshlagan. Buyuk sarkarda "Temur tuzuklari" asarida davlat, qo‘shin va boshqalarni boshqarish san’ati to‘g‘risida o‘z qarashlarini bayon etib, izohlab bergan. Menejment fanining nazariy asosini bir necha yuz yillar davomida to‘plangan amaliy tajriba natijalari tashkil etadi, ularni nazariy jihatdan asoslab turli xil konsepsiyalar, nazariy g‘oyalar, ish prinsiplari va uslublari ishlab chiqilgan. Ammo alohida fan sohasi sifatida menejment XIX asrga kelib shakllana boshladi. Boshqarish fanining asoschisi — amerikalik muhandis va tadqiqotchi F. Teylor hisoblanadi. Boshqarish tamoyillarini Teylorning zamondoshi fransuz olimi Anri Fayol ishlab chiqdi. Korxonada amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarni u olti guruh (texnika, tijorat, moliya, mol-mulk va shaxslarni qo‘riqlash, hisobkitob, ma’muriy)ga bo‘lib, boshqarishni 6-guruhga kiritadi. Menejment yoki boshqarishning ob’yekti korxonada faoliyati, uning sub’yekti esa boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning xodimlaridir. Menejment bilan maxsus tayyorgarlik ko‘rgan, boshqarishning qonun-qoidalarini chuqur biladigan malakali mutaxassislar — yollanma boshqaruvchilar — menejerlar shug‘ullanadilar. Ular aholining alohida ijtimoiy qatlamini tashkil qiladi. Menejmentning yuqori (firma strategiyasini ishlab chiqish), o‘rta (ishlab chiqarish, sotish, narx belgilash, mehnatni tashkil qilish), quyi (sex, bo‘lim doirasida ishni tashkil qilish, kunlik, haftalik, oylik ish topshiriqlari bajarilishini boshqarish) bo‘g‘inlari bor. Shunga muvofiq holda menejerlar oliy martabali, o‘rta toifadagi va quyi toifadagi menejerlarga bo‘linadi. Menejment sahosi ya’nada rivojlantirish maqsadida, 2019 yildan boshlab pedagogika universitetlarda, institutlarda maktab menejmenti yo‘nalishlar ochila boshladi.

Xo‘sh maktab menejmenti yo‘nalishi qanday yo‘nalish?

Maktab menejmenti – ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, u umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqarish, ta’lim menejerligi va pedagogik faoliyat, ta’lim sifatini nazorat qilish, xalqaro baholash dasturlari, ta’limda innovatsiyalarni boshqarish, taym menejmenti kabi kompleks masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi

Maktab menejmenti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:

- umumiy o‘rta ta’lim, maktabdan tashqari ta’lim, ta’lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish, ta’lim sifatini boshqarish, xalqaro baholash dasturlarini tatbiq etish jarayonlari;

- umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar maktablaridagi pedagogik jarayonlar;

- maktabdagi tashqari ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonlar.

Maktab menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

Maktab menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- pedagogik faoliyat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- ma'naviy-ma'rifiy faoliyat;
- tadbirkorlik.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

Maktab menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

Maktab menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Pedagogik faoliyatda:

- “Iqtisodiy bilim asoslari”, “Tadbirkorlik asoslari” fanlaridan o'rnatilgan tartibda dars berish;
- umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash;
- ta'lim tizimida kabinet mudiri, metodist va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash;
- tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;
- uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy sohalarda ishlash;
- ishlab chiqarish sohasida kompyuter texnologiyalari, kasbiy ta'lim pedagogikasi va texnologiyasi, o'qitishning didaktik vositalari, ta'limning elektron vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda to‘g‘ri qaror qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
 - ta‘lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o‘quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o‘quv materiallarini modellashtirish;
 - yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta‘lim-tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarning uyg‘unligiga erishish;
 - ta‘lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o‘zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;
 - ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish;
 - o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish va o‘tkazish;
 - ta‘lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta‘minlash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, Respublika ta‘lim markazi, A.Avloniy nomidagi xalq ta‘limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot institutida ta‘lim sifatini boshqarish, amaliy prognostika, xalqaro baholash dasturlari bilan bog‘liq mavzularda tadqiqot olib borish;
 - maktab menejmenti sohasiga doir internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
 - maktab menejmenti sohasiga doir ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;
 - ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
 - ma‘lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlarni tizimli tahlil qilish;
 - tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish.

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatida:

- ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o‘quvchilar ongiga milliy istiqloq g‘oyasini singdirish;
- o‘quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;
- globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ta‘siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

– mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

– milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

– yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

– biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Bu fakultetda talabalar kichik o'quv markazlaridan tortib katta universitetlarning faoliyatini yo'lga qo'yish, uni tizimli boshqarish, marketing, biznes reja, biznes strategiya tuzish usullari, ularni amaliyotda qo'llash tajribalarini o'rganib borishadi. Talabalar prezentatsiya qilish, notiqlik san'ati, reklama va e'lonlarning matnlarini mukammal yozish sirlarini ham o'zlashtirib borishadi.

To'rt yil davomida a'lo baholarga o'qigan talabalar yangi ta'lim muassasining boshqaruvchi lavozimida o'z ish faoliyatlarini boshlaydilar. Talabalar birinchi kursdan boshqaruv amaliyotini olib borishadi. Shuningdek, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish, ularni zamon talabiga moslab borish bilimlarini ham chuqur o'zlashtiradilar.

Darslarni aynan ta'limni boshqarish va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish, ularni zamonaviy ta'limga tadbiq etish bo'yicha yuqori bilim va tajribaga ega mutaxassislar olib borishadi.

Kasb sifatida menejment mavzusi bizning zamonaviy davrimizda ayniqsa dolzarbdir. Aksariyat odamlar bo'ysunuvchi sifatida ishlashni xohlamasliklarini, balki tashkilotni boshqarishga qiziqishlari kotta. Ko'proq odamlar bunga intilishadi, lekin hamma ham o'z maqsadlariga erisha olmaydi va hamma ham menejer rolga loyiq emas. Umuman olganda yuqorida keltirilgan fikrlarni hozirgi maktab menejmenti yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga o'rgatish va ularda ushbu qobiliyatlatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun albatta har bir insonda harakat va ma'suliyat bo'lishi kerak hech kim rahbar bo'lib tug'ulmaydi, qachonki biz o'z ustimizda ishlasak va nazariy o'qiganlarimizni amaliyotda qo'llasak bizda ham rahbar shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Musurmonov, R., Khimmataliev, D. O., Sultanova, D. A., qizi Tursunbaeva, Y. R., Khakimova, I. K., & Musurmonova, M. (2023). In the Conditions of New Uzbekistan the Main Issues of Science and Modern Education. Telematique, 7686-7694.

2. Prezidentining, O. R. (2018). Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol

ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775-sonli Qarori.

3. Qizi, T. Y. R. (2021). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATI MONITORINGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 253-258.

4. Qizi, T. Y. R. (2021). TA'LIM PSIXOLOGIYASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 587-591.

5. Расулов, А. Н., & Наримонов, Ж. М. (2022). ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИ ШАРОИТИДА “ИҚТИСОДИЙ БИЛИМ АСОСЛАРИ” ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ ТАШКИЛИЙ ВА ПЕДАГОГИК ШАРОИТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 76-79.